

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
URGANCH FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI**

**DASTURIY INJINIRINGI KAFEDRASI**

**C++ DA DASTURLASH FANIDAN**

# **Kurs ishi**

**MAVZU: SOLIQ INSPEKSIYASI UCHUN AXBOROT TIZIMINI  
LOYIHALASH.**

**Bajardi:**

911-14 guruh  
talabasi  
Jumaniyazova  
Zilola

**Ilmiy rahbar:**

Dasturiy injiniring  
kafedrası  
assistenti  
Xo'jayev Otabek

## MUNDARIJA

I.KIRISH .....	3
1.1.Axborot tizimi va unga qo‘yiladigan talablar .....	5
1.2.Soliq inspeksiyasi faoliyatini o‘rganish .....	9
II.Asosiy qism:	
2.1 Ma’lumotlar ba’zasini boshqarish tizimi Microsoft Access 2010 dasturi haqida.....	11
2.2.Soliq inspeksiyasi uchun axborot tizimini yaratish bosqichlar.....	16
2.3Yaratilgan dasturdan foydalanish.....	24
III.Xulosa.....	26
IV.Adabiyotlar ro’yhati.....	27
V.Ilova.....	28

## I.KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari mamlakatimizda jahon axborot makoniga integratsiyalashish ishlarini jadallashtirish maqsadida AKT ni jamiyatning barcha jabhalariga keng joriy qilishni nazarda tutadi. Mustaqillik yillarida Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi hamda ular telekommunikatsiya xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash imkonini berdi. Axborot telekommunikatsiya texnologiyalar sohasi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, aholiga xizmat ko'rsatishda kata ahamiyatga ega. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvati oshmoqda, eng yangi texnika va texnologiyalar joriy etilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 21-martda qabulqilingan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy qilish chora-tadbirlariga oid qarorida shunday vazifalar belgilangan. Ushbu hujjat «Axborotlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

**Kurs ishi mavzusining dolzarbligi:** Soliq ishini avtomatlashtirish va aniqlikni oshirish, qisqa vaqt ichida kata ma'lumotlar bilan ishlash maqsadida bu dastur tayyorlandi. Dasturni mukammal bo'lishi uchun biz ko'plab ma'lumotlar bazasini bir-biriga bog'lab yuqori tezlikda ishlaydigan aniq va mukammal dasturiy mahsulot yaratildi. Bu dasturimizning boshqa dasturlardan afzallik tomoni shundaki, bunda tezkor qidiruv va saralash tizimi shuningdek ma'lumotlarga o'zgartirish va

qo‘shimchalar kiritishning oson usullaridan foydalanildi. Yangi texnologiyalarni paydo bo‘lishi bilan elektron hujjatlarni yaratish, hisobotlarni elektron shaklda uzatish va qabul qilish zamonning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoldi.

**Tadqiqot ob'yekti va predmeti:** Soliq inspeksiyasi ish faoliyati bilan tanishish. Visual Studio muhiti bilan ishlash. C++ dasturlash tili va unda loyihalar yaratish. Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari bilan tanishish. Microsoft Access muhiti bilan tanishish. Microsoft Access 2010 da dasturni bazasini loyihasini shakllantirish.

**Maqsad va vazifalari:** Texnologiyalar asrida yashayotgan ekanimiz xoxlaymizmi yoki yo‘qmi yangi elektron texnologiyalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu narsa soliq inspeksiyasi ish faoliyatini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Soliq inspeksiyasiga kuniga necha fuqarolar kelib soliqlari pul miqdorini to‘lab ketishadi bular bilan ishlash juda ko‘p vaqt va mashaqqatni talab etadi. Bizning dasturimiz maqsadi shundan iboratki soliq tizimida yangi texnologiya va dastur bilan ishlash imkonini beradi. Bu esa kuni bilan cho‘zilib ketadigan navbatlarni oldini olishga yordam beradi. Shuningdek xodimalarning ishining aniqlik va sifat darajalarini yo‘qotmagan holda soliq ishining aniqlik va puxtalik bilan ishlashga hissa qo‘shishdir.

### 1.1. Axborot tizimi va unga qo'yiladigan talablar.

Axborot tizimi tushunchasini kiritishdan oldin tizim (sistema) deganda nimani tushunishimizni aniqlab olaylik. Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zida xam yaxlit, xam o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatuvchi elementlar (ob'ektlar) majmuasi tushuniladi. Demak, har qanday tizim biror-bir aniq maqsad yo'lida xizmat qiladi. Masalan, sizga ma'lum bo'lgan shaxar telefon tarmoqlari tizimi, insondagi yurak qon-tomir tizimi, asab tizimi va boshqalar sun'iy yaratilgan va tabiiy tizimlarga misol bo'la oladi. Ularning xar biri tizimga qo'yiladigan barcha shartlarga javob beradi, ya'ni, xar biri o'ziga xos yagona maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatadi va tizimni tashkil etuvchi elementlardan iborat.

Quyidagi jadvalda elementlari va asosiy maqsadi ko'rsatilgan xolda tizimlarga yana bir nechta misollar keltirilgan.

Тизим турлари	Тизимнинг элементлари	Тизимнинг асосий мақсади
Корхона	<b>Одамлар, қурилмалар, материаллар, бино ва бошиқлар.</b>	Маҳсулот ишлаб чиқариш.
Компьютер	Электрон ва электромеханик ускуналар.	Маълумотларни қайта ишлаш.
Телекоммуникацион тизим	Коммуникация воситалари, алоқа каналлари, қурилмалар.	Алоқа каналларини ўзаро боғлаш ва маълумот алмашувини таъминлаш.
Аxborot тизими	Компьютерлар, компьютер тармоқлари, одамлар, аxborot ва дастурий таъминот ва бошиқлар.	Маълумотларни яратиш, йиғиш, қайта ишлаш ва масофага узатиш.

1.1.1-rasm.

Informatikada «tizim» tushunchasi ko'proq texnik vositalar, asosan, kompyuterlar va murakkab ob'ektlarni boshqarishga nisbatan ishlatiladi. «Tizim» tushunchasiga «axborot» so'zining qo'shilishi uning belgilangan funksiyasini va yaratilish maqsadini aniq aks ettiradi. Axborot tizimi—belgilangan maqsadga erishish yo'lida axborotni yig'ish, saqlash,

qayta ishlash va uzatish uchun qoʻllaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning oʻzaro bogʻlangan majmuasidir. Axborot tizimlari jamiyat paydo boʻlgan paytdan boshlab mavjud boʻlgan, chunki rivojlanishining turli bosqichida jamiyat oʻz boshqaruvi uchun tizimlashtirilgan, oldindan tayyorlangan axborotni talab etgan. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlari — moddiy va nomoddiy neʼmatlarni ishlab chiqarish bilan bogʻlik jarayonlarga tegishlidir. Chunki ular jamiyat rivoji uchun xayotiy muxim ahamiyatga ega. Aynan ishlab chiqarish jarayonlari tezkor takomillashadi. Axborot tizimlari nafaqat axborotni qayta ishlash va saqlash, yozuv-chizuv ishlarini avtomatlashtirish, balki qarorlarni qabul qilish (sunʼiy intellekt usullari, ekspert tizimlari va xokazolar), zamonaviy telekommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telekonferentsiyalar), yalpi va lokal hisoblash tarmoqlari va boshqaruvning yangi uslublaridan foydalanish xisobiga boshqaruv obʼekti faoliyati samaradorligini oshiradi va shu maqsadda keng qoʻllaniladi. Axborot tizimlarining avtomatlashtirilgan va avtomatik turlari maʼlum. Avtomatlashtirilgan axborotlar tizimida boshqarish yoki maʼlumotlarni qayta ishlash funksiyalarining bir qismi avtomatik ravishda, qolgani esa inson tomonidan bajariladi. Avtomatik axborotlar tizimida boshqarish va maʼlumotlarni qayta ishlashning barcha funksiyalari texnik vositalarda, inson ishtirokisiz amalga oshiriladi (masalan, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish).

Qo‘llanish soxasiga qarab axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

1. ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;
2. loyixalashtirishni avtomatlashtirish;
3. tashkiliy jarayonlarni boshqarish;
4. texnologik jarayonlarni boshqarish.

Ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarishda axborot tizimlari ilmiy xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish, statistik axborotni taxlil etish, tajribalarni boshqarish uchun mo‘ljallangan. Loyixalashtirishni avtomatlashtirishda axborot tizimlari yangi texnika (texnologiya) ishlab chiqaruvchilar va muxandis loyihachilar mexnatini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Tashkiliy boshqaruvda axborot tizimlari — shaxslar funksiyalarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Bu sinfga xam sanoat (korxonalar), xam nosanoat ob'ektlari (bank, birja, sug‘urta kompaniyalari, mexmonxonalar va hokazolar) va ayrim ofislar (ofis tizimlari)ni boshqarishning axborot tizimlari kiradi. Texnologik jarayonlarni boshqarishda axborot tizimi turli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan (moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonlari, metallurgiya, energetika va xokazolar). Dastlabki axborot tizimlari 50-yillarda paydo bo‘ldi. Bu yillarda ular maosh xisob-kitoblarini qayta ishlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, elektromexanik buxgalterlik xisoblash mashinalarida amalga oshirilgan. Bu qog‘oz xujjatlarni tayyorlashda mexnat va vaqtni bir qadar qisqartirishga olib kelgan. 60-yillarda axborot tizimlariga munosabat butunlay o‘zgardi. Bu tizimlardan olingan axborot davriy xisobot uchun ko‘pgina parametrlar bo‘yicha qo‘llana boshlandi. Buning uchun tashkilotlarga ko‘pgina funksiyalarga ega bulgan EUM lar talab etila boshlandi. 70—80-yillarda axborot tizimlari qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi va tezlashtiruvchi jarayonga ega bo‘lgan

nazorat boshqaruvi vositalari sifatida keng foydalanila boshlandi.80-yillar oxiridan boshlab,axborot tizimlaridan foydalanish kontseptsiyasi yanada uzgarib bormoqda.Ular axborotning strategik manbai bo'lib qolmoqda va istalgan soxada tashkil etishning barcha darajalarida foydalanilmoqda.Bu davrning axborot tizimlari axborotni o'z vaqtida berib,tashkilot faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga yordam bermoqda.

## **1.2. Soliq inspeksiyasi faoliyatini o'rganish .**

Iqtisodiyotni tartibga solishda soliq mexanizmi alohida o'rin tutadi.O'zbekistonda bozor islohotlari boshlanishi bilan oldingi soliq tizimi ta'sirchanligi va samarasi susaydi,chunki u rejali boshqarish tizimiga asoslangan mexanizm edi.Endi bozor iqtisodiyotiga xos soliq mexanizmi joriy etilishi zarar bo'lib qoldi.Buning uchun dastlab soliq qonunlari qabul qilingan bo'lsa so'ngra O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ishlab chiqildi va u 1-yanvar 1998-yildan boshlab amalga kiritildi.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq korxonalar,tashkilot, firmalar va aholi soliqlar va yig'imlar to'laydilar.Soliqli to'lovlarning hamma turlari faqat budjetga tushadi.Soliqli to'lovlar mohiyatini ochishga keyinroq to'xtalamiz.Yig'imlar ham asosan budjetga tushadi.Budjet daromadlarini asosan soliqlar,yig'imlar va soliqsiz daromadlar tashkil etadi.Umumdavlat soliqlariga:qo'shilgan qiymat solig'i,aksiz solig'i,yuridik shaxslar daromadlarini (foyda)sidan olinadigan soliq jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq,suv resurslaridan olinadigan soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.Byudjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar.Bular ham soliqsiz to'lovlardir .Bunday fondlarga mehnat bandlik fondi,pensiya fondi va asosiy yo'l qurilishi fondi kiradi. Korxonalar,birlashmalar,tashkilot va firmalar o'zlarining ish haqi fondlariga nisbatan 24% ajratib, pensiya fondiga, 0,3% mehnat bandlik fondiga va 0,2% ini ijtimoiy sug'urta fondiga o'tkazib beradilar.

Davlat budjeti daromadining qariyb 90% ni soliqlar tashkil etar ekan,ularing mohiyatini ochish,tizimini guruhlab o'rganish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.Respublikamizning mustaqillik davridagi soliq amaliyoti chet mamlakatlar soliqlarini o'rganish,ularni respublikamizda qo'llash, qo'llanayotgan ba'zi bir soliqlarga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish bilan takomillashib bormoqda. Shunday qilib, O'zbekiston o'zining soliq tizimiga va soliqsiz to'lovlariga ega,ular respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

**Soliqlar**—bu davlat sarf-xarajatlarini asosiy manbai bo'lib,u bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy dastagi hisoblanadi.

**Soliq solish tizimi** deb,Oliy Majlis tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tuzilish usullari va tamoyillari yiqindisiga aytiladi.Bu tizimning o'rni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bilan aniqlanadi.Hozirgi davrda O'zbekistonning soliq solish tizimi davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksiyalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi bilan belgilanadi.Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyi-dagilardan iboratdir:soliq subyekti, obykti, manbasi, soliq stavkasi,soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

## 2.1. Ma'lumotlar bazasini yaratish usullari

Informatsion tizimlarni yaratish bo'yicha jadal harakatlar ma'lumotlar hajmining tez suratlar bilan oshib borishi sharoitida 60 yillar boshida maxsus "Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi" (MBBT) deb ataluvchi dasturiy kompleksning yaratilishiga olib keldi.

**Ma'lumotlar bazasi** – biror sohaga oid o'zaro bog'langan ma'lumotlar yig'indisining disk tashuvchidagi tashkiliy jamlanmasidir. Boshqacha qilib aytganda, ma'lumotlar bazasi – bu kompyuter xotirasiga yozilgan ma'lum bir strukturali, o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'lumotlar majmui bo'lib, u biror bir obyektning xususiyatini, holatini yoki obyektlar o'rtasidagi munosabatni ma'lum ma'noda tavsiflaydi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) – bu dasturiy va apparat vositalarning murakkab majmui bo'lib, ular yordamida foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini yaratish va shu bazadagi ma'lumotlar ustida ish yuritish mumkin. MBBT o'z maxsus dasturlash tillariga ham ega bo'lib, bu tillarga *buyruqli dasturlash tillari* deyiladi. MBBTga Oracle, Clipper, Paradox, FoxPro, Access va boshqalarni misol keltirish mumkin.

MBBT asosiy xususiyatlari - bu protseduralar tarkibi bo'lib, ular faqat ma'lumotlarni kiritish va saqlashda ishlatilmasdan, ularning strukturasini ham tasvirlaydi. Ma'lumotlarni o'zida saqlab va MBBT ostida boshqariladigan fayl, oldin ma'lumotlar banki deb atalib, keyinchalik esa "Ma'lumotlar bazasi" deb yuritila bosladi.

Ma'lumotlarni boshqarish tizimi, quyidagi xossalarga ega:

- ✓ fayllar to'plami mantiqiy kelishuvni quvvatlaydi;
- ✓ ma'lumotlar ustida ish yuritish tili bilan ta'minlaydi;
- ✓ har xil to'xtalishlardan keyin ma'lumotlarni qayta tiklaydi;
- ✓ MBBT bir necha foydalanuvchilarning parallel ishlashini ta'minlaydi.

Microsoft Access MBBT relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi tizim sanalib, local ma'lumotlar bazasini yaratish uchun barcha instrumental vositalar hamda foydalanuvchi dastur tuzish imkoniyatlari mavjud.

Microsoft Access MBBT o'z ichiga turli ob'yektlarni yaratish uchun avtonom vositalarga ega:

- ✓ Grafik konstrucciylar vositasi ma'lumotlar bazasi ob'ektlarini grafik elementlar yordamida qurish imkoniyatiga ega;

- ✓ Dialog vosita ma'lumotlar bazasini qayta qurish va tashkillashtirish uchun turli vazifalarni bajaruvchi masterlar yordam beradi;

- ✓ MBBT ning dasturlash vositasi uz ichiga SQL, makrokomandalar tilini olgan.

Microsoft Access dasturi ma'lumotlar ombori bilan ishlash uchun yaratilgan dastur bo'lib u Microsoft Office ning standart paketida joylashgan bo'ladi.

Microsoft Accessning asosiy bajaruvchi funksiyalari:

- ✓ Ma'lumotlar berilishini tashkil qilish. Jadvallar yaratish va ularni boshqarish.

- ✓ Jadvallarni bog'lash va berilgan ma'lumotlardan foydalanish huquqini

(dostup) ta'minlash. Access jadvallarni mos keluvchi maydonlari yordamida

bog'laydi va buning natijasida ularni bitta jadvalga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- ✓ Ma'lumotlarni taqdim etish. Access ma'lumotlar bazasining berilgan

jadvallari va boshqa ob'ektlari asosida turli xil hisobotlar tuzish imkonini beradi.

✓ Makroslar. Makroslardan foydalanish qaytariluvchi operatsiyalarni

Avtomatlashtirish imkonini beradi. Accessning oxirgi versiyalarida makroslar

boshqa tizimlar bilan birgalikda ishlash uchun ishlatiladi.

✓ Modullar. Modullar - bu Access WBA (Vizual Basic Application) dasturlari

yoki funksiyalarini o'zida namoyon qiladi. Bu dasturlarni murakkab hisoblar uchun ishlatish mumkin. Access dasturlari makroslarga nisbatan yuqori imkoniyatlarga egadir.

✓ Ma'lumotlar bazalarini himoyalash. Bu vosita dasturiy ilovani ko'p

foydalanuvchili muhitda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Hamda ma'lumotlar bazasidan ruxsatsiz foydalanishni ta'qiqlaydi.


✓ Bosmaga chiqarish vositalari. Bu funksiya yordamida Access ma'lumotlar bazasida mavjud hamma axborotlarni bosmaga chiqarish imkonini beradi. Dasturlarni o'rnatish va tarqatishni avtomatlashtirish vositasini tayyorlashda ODE Tools paketi o'rnatish masteriga ega. Bu esa Access o'rnatilmagan kompyuterlarda ham dasturiy ilovalarning ishlashini ta'minlaydi.

## Ma'lumotlar bazasini yaratish.

### Access oynasi

Accessni quyidagicha ishga tushiramiz: Pusk ni bosamiz keyingi menyuda Programmi va undan keyin Microsoft Access tanlanadi.


Accessni asosiy elementlarini ko'rib chiqamiz:



### Access oynasining ko`rinishi

Savrlolar qatorida sytem menyuu tugmalari joylashgan, dastur nomi (Microsoft Access) va uch tugma ekranda oynani boshqarish uchun mo`ljallangan.

Menyu satrida quyidagi punktlar mavjud "Fayl", "Pravka", "Vid", "Vstavka", "Servis", Okno", "Spravka", har biri alohida sichqon tugmasi bilan ochiladigan menyuu qatorlariga ega.



### Spravka menyusining ko`rinishi

## Ma'lumotlar bazasini loyixalash


Ma'lumotlar bazasini yaratishdan avval realizasion ma'lumotlar bazasini loyixalash, xolatini aniqlash ma'lumotlarni mantiqiy tuzilishini va jadvallar aro aloqani aniqlash lozim bo'ladi. Quyida ma'lumotlar bazasini loyihalash va yaratish bosqichlari keltirilgan:

- 1.Ma'lumotlar bazasi tuzilishini yaratish
- 2.Jadvallarni tasvirlash
- 3.Jadval qatorlarini tasvirlash
- 4.Access dasturlash tilida jadvallarni yaratish
- 5.Jadvallarni ma'lumotlar bilan to'ldirish


### 2.2. Soliq inspeksiyasi axborot tizimini yaratish bosqichlari

Soliq inspeksiyasi uchun axborot tizimini yaratishda ma'lumotlar bazasidan foydalaniladi.Ma'lumotlar bazasi yaratishni bu dasturning asosi deb aytsak ham bo'ladi.


Quyida ma'lumotlar bazasini loyihalash va yaratish bosqichlari keltirilgan: 1.Ma'lumotlar bazasi tuzilishini yaratish




## 2. Jadvallarni tasvirlash



## 3. Jadval qatorlarini tasvirlash




## 4. Access dasturlash tilida jadvallarni yaratish




## 5. Jadvallarni ma'lumotlar bilan to'ldirish

ID	Ism	Familiya	Sharif	Tugilgan_sa	Yashash_me	Mulk_soligi	Tolagan_pul	Ver_soligi_j	Tolagani	Daromat_so	Jami_tolaga	Цельник
1	Dilshod	Jumabaev	Normat o'g'li	18.02.1980	Urganch shaha	95286	100000	110596	23000	85948	100000	
2	Sardor	Qurbonov	Bahrom o'g'li	18.08.1980	Urganch shaha	95286	85000	110596	10000	95245	80000	
3	Ilyos	Sattorov	Shonazar o'g'li	03.02.1980	Urganch shaha	95286	90000	110596	11000	66578	85500	
4	Alvost	Abdullayev	Alisherovich	12.03.1975	Urganch shaha	95286	90000	110596	15000	89654	90500	
5	Doston	Abdullayev	Sadullayevich	23.12.1987	Urganch shaha	95286	180000	110596	90000	87456	100500	
6	G'olibjon	Bekmetov	Anvarovich	12.03.1986	Urganch shaha	95286	80000	110596	80000	54789	0	
7	Zirola	Jumaniyozov	Umiddalovna	15.05.1975	Urganch shaha	95286	150000	110596	10000	50987	20000	
8	Jamshid	Jabborov	Alisherovich	14.04.1974	Urganch shaha	95286	90000	110596	50000	78965	85500	
9	Xursand	Babajonov	Calandarovich	29.02.1980	Urganch shaha	95286	100000	110596	14000	74569	100000	
10	Sarobov	Polayev	Kenjaboyevich	24.06.1983	Urganch shaha	95286	100000	110596	10000	96547	45000	
11	Navro'z	Kenjayev	Baxtiyorovich	25.05.1985	Urganch shaha	95286	90000	110596	50000	98745	65000	
12	Sardor	Hikmatov	Ahmadovich	26.06.1986	Urganch shaha	95286	98000	110596	15000	65474	85500	
13	Hasan	Sadullayev	Fayzullayevich	15.05.1978	Urganch shaha	95286	140000	110596	18000	69474	76000	
14	Husan	Sadullayev	Fayzullayevich	15.05.1978	Urganch shaha	95286	130000	110596	15000	58964	100000	
15	Bekzod	Jumaniyozov	Umiddalovich	17.12.1985	Urganch shaha	95286	85000	110596	20000	58764	90500	
16	Bunyod	Jumaniyozov	Davronbekovich	15.05.1985	Urganch shaha	95286	100000	110596	115000	94568	80000	
17	Sherozod	Jumaniyozov	Shahmatovich	12.02.1982	Urganch shaha	95286	100000	110596	12000	95687	10000	
18	Alisher	Jumaniyozov	Sanatbekovich	15.02.1991	Urganch shaha	95286	90000	110596	95000	84567	10	
19	Umiddalov	Rajabov	Jumaniyozovich	26.08.1975	Urganch shaha	95286	150000	110596	150000	86547	100000	
(#)						0	0	0	0	0	0	


Endi dasturni yaratishni Visual Studioda ilova yaratish bilan davom ettiramiz. Visual Studioda ilova quidagicha yaratiladi.



Visual C++ -> Создать проект -> Windows Forms



Yuqorida keltirilgan ketma – ketliklardan so`ng Form1 oynasi yaratiladi.



Dasturda zarur bo`lgan komponentalar tanlanadi va form oynasiga tashlanadi. Bu dasturda 1-form login parol yozish uchun mo`ljallangan bo`lib una 2 ta textbox, 1 ta label, 1 ta button komponentalari tashlanada.

**Label komponentasi:**



Label Yozuv (label komponenti)


yorliqni ifodalaydi va ko`pincha o`zining Caption xususiyatiga ega bo`lmagan boshqa boshqaruv elementlarining sarlavasi sifatida ishlatiladi.

**TextBox komponentasi:**




Bir satrli redaktor matn tasvirlanishi

va o`zgartirilishi mumkin bo`lgan ma`lumot kiritish maydonini ifodalaydi.



Komponentalar joylashtirilgach dasturning form1 oynasi quyidagi ko`rinishga keladi.




Dasturda fuqarolar haqida ma'lumot, soliq turlari va shu soliq turlaridan qancha pul to'laganliklari haqida ma'lumot olish uchun 2- form oynasini hosil qilamiz.

Unga yangi form2 oynasini qo`shib ikkala formani bir-biri bilan bog`laymiz.


```
MyForm ^ f2= gnew MyForm();
```

```
f2->Show();
```


Form2 oynasiga kerakli komponentalar tashlanadi.




Eni esa Formni ma'lumotlar bazasi bilan bog'lashni boshlaymiz avval OleDbDataAdapter ulanadi:




Keyin "Создать подключение..." bo'limidan bazaning qaysi dasturda tuzilgani va adresi beriladi:




Undan keyin "Построитель Запросов..." Bo'limiga kirib jadvalni "Добавить" qilibustunlarni belgilab chiqamiz:




Formda ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni chiqarish uchun "DataGridView" komponentasi olinadi.



"DataSet1" dan "Columns" dan columnlar "добавить" qilinib "ColumnName"ini ma'lumotlar bazasidagi "Имя поля"si bilan bir xil qilib yozib chiqamiz



Agar bir xil qilib yozilmasa xatolik beradi. Bu dasturda qidirish uchun 1 ta textBox, 1 ta listBox yetarli. To'g'ri ulangandan keyin form oynasi quyidagi ko'rinishgakeladi:




Qidiruv funksiyasi uchun quyidagi kod yoziladi:

```
private: System::Void textBox1_TextChanged(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
    OleDbDataAdapter1->SelectCommand->CommandText = "SELECT * FROM Jadval WHERE Ism LIKE '%" + textBox1->Text + "%' OR
    // OleDbDataAdapter1->SelectCommand->ExecuteNonQuery();
    DataTable ^dt = gcnew DataTable();
    OleDbDataAdapter1->Fill(dt);
    dataGridView1->DataSource = dt;
}
```

Dasturning Menular satrida “Fayl” va “Yordam” menulari bo’lib “Yordam” menyusida dastur haqida ma’lumot olish mumkin. Buning uchun yana bir Form ochish kerak.

Bu Formda bizga rasm joylashtirish uchun “PictureBox” va ma’lumot yozish uchun “Label” komponentalari kerak bo’ladi. Bunda dastur kodi va dastur Formi quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

```
#pragma endregion
private: System::Void pictureBox1_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
}
private: System::Void MyForm2_Load(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
}
private: System::Void label4_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
}
private: System::Void label2_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
}
private: System::Void label3_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
};
};
```



### 2.3 Yaratilgan dasturdan foydalanish.

Soliq inspeksiyasi uchun axborot tizimini loyihalash dasturi 4 ta form oynasidan iborat bo'lib bu dasturdan quyidagicha foydalanish mumkin. Bunda birinchi oyna login parol oynasi bo'lib quyida uning ko'rinishi tavsiflangan:




Agar parol yoki login xato terilsa tizimga kirmaydi.

Ikkinchi oyna ma'lumotlar bazasi bilan ulangan bo'lib unda qidirish, fuqarolar haqida ma'lumot olishimiz mumkin. U quyidagi ko'rinishga ega:

ID	Ism	Familya	Sharif	Tugilgan_sanasi	Yashash_manzili	Mulk_oligi_jami	Tolov
7	Zirola	Jumaniyozova	Umidbekovna	15.05.1975	Urganch shahar ...	95286	15000
8	Jamshid	Jabborov	Alisherovich	14.04.1974	Urganch shahar ...	95286	90000
9	Xursand	Babajonov	Qalandarovich	29.02.1980	Urganch shahar ...	95286	10000
10	Sapoboy	Polyazov	Kerjaboyevich	24.06.1989	Urganch shahar ...	95286	10000
11	Navro'z	Kerjayev	Baxtiyorovich	25.05.1985	Urganch shahar ...	95286	90000
12	Sardor	Hikmatov	Ahmadovich	26.06.1986	Urganch shahar ...	95286	98000
13	Hasan	Sadullayev	Fayzullayevich	15.05.1978	Urganch shahar ...	95286	14000
14	Husan	Sadullayev	Fayzullayevich	15.05.1978	Urganch shahar ...	95286	11000
15	Bekzod	Jumaniyozov	Umidbekovich	17.12.1985	Urganch shahar ...	95286	85000
16	Buriyod	Jumaniyozov	Davronbekovich	15.05.1965	Urganch shahar ...	95286	10000
17	Sherzod	Jumaniyozov	Shavkatovich	12.02.1982	Urganch shahar ...	95286	10000
18	Alisher	Jumaniyozov	Sanatbekovich	15.02.1991	Urganch shahar ...	95286	90000


Bu yerda qidiruv ikki xil shakilda ya'ni ism bo'yicha ham familya bo'yicha ham qidiradi.

Uchinchi oynada biz fuqarolarni har biri haqida ma'lumot olishimiz mumkin.Ma'salan:



Bu yerda fuqaroning ismi,familyasi,sharfi,tug'ilgan sanasi, yashash manzili haqid ma'lumot olish mumkin.

To'rtinchi oynada "Yordam" menusidan dasturchi haqida ma'lumot olishimiz mumkin.



## **Xulosa**

Kurs ishini bajarish bo'yicha quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1) Berilgan masalani hal qilishda matematik, ta'lim va pedagogikaga oid bilimlar yanada mustahkamlandi;

2) Yuqorida berilgan ishlar bajarilgandan so'ng, masalani dasturiy qismini yaratish uchun birinchi qadamlar tashlandi. Bunda dastur tuzish uchun kerakli algoritmlarni tanlash amalga oshirildi. Algoritmlarni tuzishga va ularni eng muqobilini tanlashga doir bilim va ko'nikmalar yana bir bor yodga tushirildi.

3) Eng maqbul algoritm tanlab olgandan so'ng, dasturni va uning ma'lumotlar bazasini yaratish uchun dasturlash tillarini tanlab olish amalga oshirildi;

4) Dasturni yaratish davomida dasturlash tilining asosiy va qo'shimcha imkoniyatlaridan to'laqonli ravishda foydalanib; dasturlash tilida mavjud bo'lgan ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan mukammal ravishda foydalanishga erishildi. Yuqoridagi keltirgan bandlar asosida mavjud masalani yechishni optimal variantini yechishga harakat qildi. Bunda egallagan bilimlarga, ustozlari va yaqin o'rtoqlarning bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashgan holda—"SOLIQ INSPEKSIYASI" dasturi yaratdi. Berilgan masalani yechishda ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan kengroq foydalanishga harakat qildi.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. 2011 yil.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch «Ma'naviyat» , 2008 , 80bet.
3. «Xalq so'zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son
4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil "01" iyul 257 - sonli buyrug'iga 1-ilovasidan.
5. C++ tilida programmalash asoslari, Madraximov Sh.F. Gaynazarov S.M. Toshkent 2009 yil.
6. Полный справочник по C++ 4-е издание. Герберт Шилдт —Вильямс, 2006,- 791ст.
- 7."Ma'lumotlar bazasi" Sh.Nazirov A.Nematov R.Qobulov N.Mardonova Toshkent 2007 yil 7-bet.
- 8."Soliq va soliqqa tortish" A.Yuldoshev «Fan va texnologiya».2007.128 bet.
- 9.O'zbekiston Respublikasining Soliqkodeksi. «O'zbekiston» 2004yil.
- 10.Karimov I.A O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'zi-ga xos yo'li.T.,O'zbekiston,1993.-108-b.
11. A.Sattorov "Ma'lumotlar bazadini boshqarish sistemasi (Access Windows-9x/2000 uchun)"-"Fan va texnologiya" -2006y.
12. "MS Access 2002-ma'lumotlar majumasini boshqarish tizimi" Toshkent. Toshkent moliya institute, 2006 yil.

## Ilova

Form oynasining dastur kodi:

```
#pragma endregion
private: System::Void button1_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
    if(textBox1->Text=="1" && textBox2->Text=="1")
    {
        MyForm^ f2=gnew MyForm();
        f2->Show();
        this->Hide();
    }else { MessageBox::Show("Parol yoki Login noto`g`ri
kiritildi!");
        textBox1->Clear();
        textBox2->Clear();
    }
}

private: System::Void label1_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
}

private: System::Void Form1_KeyPress(System::Object^ sender,
System::Windows::Forms::KeyPressEventArgs^ e) {
    if(textBox1->Text=="1" && textBox2->Text=="1")
    {
        MyForm^ f2=gnew MyForm();
        f2->Show();
        this->Hide();
    }
}

private: System::Void textBox2_TextChanged(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
}

private: System::Void Form1_Load(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
}

};
}
```

MyForm oynasining dastur kodi:

```
#pragma endregion
```

```
private: System::Void MyForm_Load(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
    OleDbDataAdapter1->Fill(dataSet1);
}
private: System::Void textBox1_TextChanged(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
    OleDbDataAdapter1->SelectCommand-
>CommandText = "SELECT * FROM Jadval WHERE Ism LIKE
'%"+textBox1->Text+"%' OR Familya LIKE '%"+textBox1->Text+"%'";
    // OleDbDataAdapter1->SelectCommand-
>ExecuteNonQuery();
    DataTable ^dt = gcnw DataTable();
    OleDbDataAdapter1->Fill(dt);
    dataGridView1->DataSource = dt;
}
private: System::Void listBox1_SelectedIndexChanged(System::Object^
sender, System::EventArgs^ e) {
    this->textBox1->Text=this->listBox1->Text;
}
private: System::Void saqlashToolStripMenuItem_Click(System::Object^
sender, System::EventArgs^ e) {
    OleDbDataAdapter1->Update(dataSet1->Tables["Jadval"]);
}
private: System::Void dataGridView1_CellContentClick(System::Object^
sender, System::Windows::Forms::DataGridViewCellEventArgs^ e) {
    MyForm1 ^f= gcnw MyForm1();
    f->Show();
    f->Text = Convert::ToString(dataGridView1[0, e-
>RowIndex]->Value)+" "+Convert::ToString(dataGridView1[1, e->RowIndex]-
>Value)+" "+Convert::ToString(dataGridView1[2, e->RowIndex]->Value);

// f->pictureBox1->Image =
```

```
Image::FromFile(Application::StartupPath+"\\img\\"+Convert::ToString(dataGridView1[10, e->RowIndex]->Value));
```

```
f->label1->Text += Convert::ToString(dataGridView1[1, e->RowIndex]->Value)+" "+Convert::ToString(dataGridView1[2, e->RowIndex]->Value)+" "+Convert::ToString(dataGridView1[3, e->RowIndex]->Value);  
f->label2->Text += Convert::ToString(dataGridView1[4, e->RowIndex]->Value);  
f->label3->Text += Convert::ToString(dataGridView1[5, e->RowIndex]->Value);  
f->Show();
```

```
}
```

```
private: System::Void
```

```
dasturHaqidaToolStripMenuItem_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
```

```
MyForm2 ^f2= gcnew MyForm2();  
f2->Show();
```

```
}
```

```
private: System::Void chiwishToolStripMenuItem_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
```

```
this->Close();
```

```
}
```

```
private: System::Void button1_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
```

```
if(MessageBox::Show("Siz haqiqatdan ham ushbu fuqaroni o'chirmoqchimisiz?", "Fuqaroni o'chirish", MessageBoxButtons::YesNo, MessageBoxIcon::Question) == System::Windows::Forms::DialogResult::Yes){  
bindingSource1->RemoveCurrent();
```

```
oleDbDataAdapter1->Update(dataSet1->Tables["Jadval"]); }
```

```
}
```

```
private: System::Void button2_Click(System::Object^ sender, System::EventArgs^ e) {
```

```
oleDbDataAdapter1->Update(dataSet1->Tables["Jadval"]);
```

```
}
```

```

    private: System::Void button2_Click_1(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void button2_Click_2(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
};
}

```

MyForm1 oynasining dastur kodi:

```

#pragma endregion
    private: System::Void label1_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void label3_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void pictureBox1_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void label2_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void MyForm1_Load(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {};}
}

```

MyForm2 oynasining dastur kodi:

```

#pragma endregion
    private: System::Void pictureBox1_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }

    private: System::Void MyForm2_Load(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void label4_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void label2_Click(System::Object^ sender,
System::EventArgs^ e) {
        }
    private: System::Void label3_Click(System::Object^ sender,

```

```
System::EventArgs^ e) {  
    }  
};  
}
```